

**NORUDA FOYDALI QAZILMALARNI O'Z
ICHIGA OLGAN YER QA'RI
UCHASTKALARIDAN FOYDALANISH
HUQUQINI OLISH UCHUN
RUXSATNOMALAR BERISH TARTIBI
TO'G'RISIDA
USLUBIY QO'LLANMA**

TOSHKENT-2025

Noruda foydali qazilmalarni o'z ichiga olgan yer qa'ri uchastkalaridan foydalanish huquqini olish uchun ruxsatnomalar berish tartibi to'g'risida uslubiy qo'llanma.: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2025-yil.

Ushbu uslubiy qo'llanma noruda foydali qazilmalarni o'z ichiga olgan yer qa'ri uchastkalaridan foydalanish huquqini olish jarayonlarining huquqiy, tashkiliy va amaliy jihatlarini tizimli ravishda yoritadi. Qo'llanma yer qa'ri uchastkalaridan foydalanish bo'yicha ruxsatnomalarni berish tartibini izchil, aniq va yagona mexanizm sifatida shakllantirishga xizmat qiluvchi me'yoriy asoslar, amaldagi tartib-taomillar hamda ularni amalga oshirish bo'yicha tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Qo'llanmaning maqsadi – noruda foydali qazilmalarni geologik o'rganish, ulardan oqilona foydalanish va yer qa'ridan foydalanish tizimida shaffoflikni ta'minlash, ruxsat berish jarayonlarini soddalashtirish, tartibga solinadigan munosabatlarda huquqiy aniqlikni qaror toptirish hamda foydalanuvchi subyektlar uchun yagona metodologik yondashuv yaratishdan iborat.

MUNDARIJA:

FOYDALANILGAN NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR	4
UMUMIY QOIDALAR	5
NORUDA FOYDALI QAZILMALARNI O'Z ICHIGA OLGAN YER QA'RI UCHASTKALARIDAN FOYDALANISH HUQUQI UCHUN RUXSATNOMALAR	5
NORUDA FOYDALI QAZILMALARNI O'Z ICHIGA OLGAN YER QA'RI UCHASTKALARIDAN FOYDALANISH SHARTLARI NORUDA FOYDALI QAZILMALARNI O'Z ICHIGA OLGAN YER QA'RI UCHASTKALARIDAN FOYDALANISH SHARTLARI.....	5
NORUDA FOYDALI QAZILMALARNI O'Z ICHIGA OLGAN YER QA'RIDAN FOYDALANISH MUDDATLARI.....	5
YER QA'RI UCHASTKALARIDAN FOYDALANISH HUQUQI UCHUN RUXSATNOMALAR BERISH, DAVLAT RO'YXATIDAN O'TISH, DAVLAT HISOBIGA OLISH VA RASMIYLASHTIRISH TARTIBI	5
YAKUNLOVCHI QOIDALAR.....	5

FOYDALANILGAN NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-yanvardagi 92-son "Geologiya-razvedka ishlarini tashkil etish va olib borish tizimi samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori	
Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 4-dekabrdagi 617-son "Yer qa'rini geologik o'rganish, foydalanish va muhofaza qilish sohasidagi boshqaruv va nazorat qilish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qarori	
Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 25-martdagi 133-sonli "Yer qa'ri uchastkalaridan foydalanish huquqi uchun ruxsatnomalar berish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori	

KIRISH

So'nggi yillarda mamlakatimizda yer qa'ridan oqilona foydalanish, xususan, noruda foydali qazilmalarni geologik o'rganish va ulardan foydalanish tartibini takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Davlatimiz tomonidan bu yo'nalishga alohida e'tibor qaratilib, yer qa'ri uchastkalaridan foydalanish huquqini berish jarayonlarini soddalashtirish, shaffof va adolatli ruxsat berish tizimini shakllantirish hamda geologiya sohasidagi huquqiy mexanizmlarni izchil takomillashtirish bo'yicha amaliy choralar ko'rilmogda.

Noruda foydali qazilmalarni aniqlash, ularning zaxirasini baholash va ulardan foydalanish uchun yer qa'ri uchastkalariga bo'lgan huquqni rasmiylashtirish jarayonining samaradorligi iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror ishlashi, sanoat salohiyatining oshishi, resurslardan oqilona foydalanish hamda ekologik xavfsizlikni ta'minlashning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etilmogda.

Adliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan ushbu uslubiy qo'llanma noruda foydali qazilmalarni o'z ichiga olgan yer qa'ri uchastkalaridan foydalanish huquqini olish uchun ruxsatnomalar berish tartibini belgilashga qaratilgan bo'lib, sohada yagona metodologik yondashuvni shakllantirishga qaratilgan.

UMUMIY QOIDALAR

Mazkur uslubiy qo'llanmada quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:



“E-auksion” elektron savdo platformasi (keyingi o‘rinlarda – savdo platformasi) – elektron onlayn-auksionlarni tashkil etish va o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan axborotni kiritish, saqlash va qayta ishlash, shuningdek, manfaatdor shaxslarning auksionlar jarayonlaridan operator veb-portali orqali bevosita foydalanish imkoniyatini ta’minlaydigan axborot tizimi;



noruda foydali qazilmalar — tarkibida metall bo‘lmagan tabiiy holicha, tozalab yoki qayta ishlab olinadigan foydali qazilmalar (noruda foydali qazilmalarga — kimyo, sement, oyna, olovbardosh va chinni buyumlar sanoatida foydalanish uchun yaroqli bo‘lgan xom ashyo, kvarsitlar, kvars-dala shpati jinslari, marmar, granit, siyenitlar, dioritlar, gabbro, andezitlar, diabazlar, bazalt, vulqon tuflari, shlaklar, shag‘al, qum-shag‘al aralashmasi, qum va qumtosh, gil va gilli jinslar (suglinkalar, alevrolitlar, bentonitlar, argillitlar), tosh tuzi, gips, mergel, ohaktoshlar, shu jumladan chig‘anoqlar, bo‘rli jinslar, dolomitlar, kremniyli jinslar, tabiiy bo‘yoqlar kiradi);



noruda foydali qazilmalarni o‘z ichiga olgan yer qa’ri uchastkalari — tarkibida noruda foydali

qazilmalar mavjud bo'lgan va aniq geometrlangan chegaralarga ega yer qa'ri maydoni;



operator — O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzuridagi "Elektron onlayn-auksionlarni tashkil etish markazi" davlat unitar korxonasi.

Noruda foydali qazilmalarni o'z ichiga olgan yer qa'ri uchastkalaridan foydalanish huquqi ruxsatnoma asosida:

- ✓ geologik o'rganish;
- ✓ qazib olish;
- ✓ texnogen mineral hosilalardan foydalanish uchun beriladi.

DIQQAT!

Ruxsatnomalar Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi "Yer qa'ridan foydalanish markazi" davlat muassasasi (keyingi o'rinlarda — Yer qa'ridan foydalanish markazi) tomonidan yer osti boyliklaridan foydalanishning har bir turi uchun alohida-alohida beriladi.

NORUDA FOYDALI QAZILMALARNI O'Z ICHIGA OLGAN YER QA'RI UCHASTKALARIDAN FOYDALANISH HUQUQI UCHUN RUXSATNOMALAR

DIQQAT!

Geologik o'rganish uchun yer qa'ri uchastkalaridan foydalanish huquqini beruvchi ruxsatnoma tadbirkorlik tavakkalchiligi asosida noruda foydali qazilmalar konlarini izlash, baholash va qidirishga oid huquqni tasdiqlaydi.

BILIB OLING!

Mineral xomashyo bazasini rivojlantirish davlat dasturlarida davlat budjeti va tashkilotlar mablag'lari hisobidan yer qa'ridan geologik o'rganish uchun foydalanish huquqi belgilangan tartibda tasdiqlangan loyiha-smeta hujjatlariga asoslanadi.

Noruda foydali qazilmalarni geologik o'rganish bosqichida loyiha-smeta hujjatlarida asoslangan hamda noruda foydali qazilmalar zaxiralarini hisoblab chiqish va ularning sifatini baholash uchun yetarli hajmlarda tajriba (sinov) va tajriba-sanoat yo'sinida qazib olish ishlarini o'tkazish uchun yer qa'ri uchastkalaridan foydalanish huquqiga oid ruxsatnoma olish talab qilinmaydi.

Daryo o'zanlarini tozalash jarayonida qum-shag'al materiallarini qazib olish uchun yer qa'ri uchastkalaridan foydalanish huquqi uchun ruxsatnoma olish talab qilinmaydi.

Daryolar o'zanlarida qum-shag'al materiallarini qazib olish faqat ularni tozalash jarayonida O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi **"Xavfsiz daryo boshqarmasi"** davlat muassasasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 3-dekabrdagi 981-son qarori bilan tasdiqlangan Daryolar o'zanlarini tozalash ishlariga tadbirkorlik subyektlarini elektron onlayn-auksion orqali jalb qilish tartibi to'g'risidagi nizom talablari asosida jalb etilgan tadbirkorlik subyektlari va boshqa tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi.

Bu muhim!

Noruda foydali qazilmalarni qazib olish uchun yer qa'ri uchastkalaridan foydalanish huquqiga oid ruxsatnoma, uning egasiga

-  konni qazib olish,
-  qazib olinayotgan mineral xom ashyoni qayta ishlash,
-  ruxsatnoma shartlarida boshqa holatlar nazarda tutilmagan bo'lsa, qazib olish jarayonida olingan mineral hosilalardan foydalanish (qayta ishlash) huquqini beradi.

Noruda foydali qazilmalarni qazib olish uchun yer qa'ri uchastkasidan foydalanish huquqiga oid ruxsatnoma noruda foydali qazilmalarning zaxiralari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tasdiqlangan kon bo'yicha ularni qazib olish uchun beriladi.

Bu muhim!

Yer qa'ri uchastkalaridan foydalanish huquqiga oid ruxsatnomani konning alohida uchastkasidagi noruda foydali qazilmalarni qazib olish uchun berilishiga ruxsat etiladi!

Ushbu holat:

- ✔ konni qazib olishning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini yomonlashtirmasligi kerak;
- ✔ konning qolgan qismlari (uchastkalari)ni o'zlashtirishga to'sqinlik qilmasligi kerak

Yer qa'ri uchastkalaridan foydalanish huquqi uchun bir necha ruxsatnomalarning bir vaqtning o'zida bitta yer qa'ridan foydalanuvchiga berilishiga yo'l qo'yiladi

Bir vaqtning o'zida noruda foydali qazilmalarning turli konlarini, ayrim turdagi qurilish va boshqa materiallar va buyumlarni ishlab chiqarish uchun zarur komponent sifatidagi mineral xom ashyo qazib olishga oid yer qa'ri uchastkalaridan foydalanish huquqi uchun bir necha ruxsatnomalar bitta yer qa'ridan foydalanuvchiga berilishi mumkin.

Noruda foydali qazilmalarni qazib olish uchun yer qa'ri uchastkalaridan foydalanish huquqini beruvchi ruxsatnoma egasi, unga berilgan kon ajratish dalolatnomasi doirasida qo'shimcha ruxsatnomasiz yer qa'rini geologik o'rganishga doir ishlarni, ularni Yer qa'ridan foydalanish markazining Davlat geologiya fondida hisobiga qo'yish sharti bilan olib borish huquqiga ega.

NORUDA FOYDALI QAZILMALARNI O'Z ICHIGA OLGAN YER QA'RI UCHASTKALARIDAN FOYDALANISH

DIQQAT!

Yer qa'ridan foydalanish ruxsatnomada nazarda tutilgan yer qa'ri uchastkalaridan foydalanish shartlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Noruda foydali qazilmalarni o'z ichiga olgan yer qa'ri uchastkalaridan foydalanishning asosiy shartlariga yer qa'ridan foydalanish turlaridan kelib chiqqan holda "Yer osti boyliklari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni bilan belgilangan shartlar kiradi.

Noruda foydali qazilmalarni o'z ichiga olgan yer qa'ri uchastkalaridan foydalanishning namunaviy shartlari Yer qa'ridan foydalanish markazi va uni hududiy bo'linmalarining rasmiy veb-saytlarida joylashtiriladi, shuningdek zarurat bo'lganda belgilangan tartibda ommaviy axborot vositalarida ham e'lon qilinishi mumkin.

Geologik o'rganish uchun yer qa'ridan foydalanganlik uchun yillik litsenziya to'lovi miqdori geologik o'rganiladigan yer qa'rining **1 gektari** uchun qonunchilikda belgilangan bazaviy hisoblash miqdorining **15 foizini** tashkil etadi hamda quyidagilarga:

70 foizi — O'zbekiston Respublikasining respublika budjetiga;

15 foizi — viloyat mahalliy budjetiga;

15 foizi — tuman (shahar) mahalliy budjetiga yo'naltiriladi.

NORUDA FOYDALI QAZILMALARNI O'Z ICHIGA OLGAN YER QA'RIDAN FOYDALANISH MUDDATLARI

Geologik o'rganish, noruda foydali qazilmalarni qazib olish va texnogen mineral hosilalardan foydalanish uchun yer qa'ri uchastkalari quyidagilar uchun belgilangan muddatlarga beriladi:

geologik jihatdan o'rganish uchun — **5 yilgacha muddatga**;
foydali qazilmalarni kavlab olish va texnogen mineral hosilalardan foydalanish uchun:

dastlab ruxsatnoma berilganda — **5 yil muddatga**;

texnik-iqtisodiy asoslar taqdim etilgandan so'ng — foydali qazilma konini yoki texnogen mineral hosilalarni ishga solishning texnik-iqtisodiy asoslarda belgilangan muddatiga, biroq **25 yildan oshmaydigan** muddatga beriladi.

DIQQAT!

Yer qa'ridan foydalanish muddatlari ruxsatnomada ko'rsatiladi va u berilgan kundan boshlab hisoblanadi.

Yer qa'ridan foydalanish muddati tugashidan oldin foydalanuvchi "Litsenziya" AT yoki YIDXP orqali Yer qa'ridan foydalanish markaziga murojaat qilib, ruxsatnomadagi shartlarni bajargan taqdirda, geologik o'rganish ishlarini yakunlash, foydali qazilmalar va texnogen mineral hosilalarni qazib olish, korxonalarni

YER QA'RI UCHASTKALARIDAN FOYDALANISH HUQUQI UCHUN RUXSATNOMALAR BERISH, DAVLAT RO'YXATIDAN O'TISH, DAVLAT HISOBIGA OLISH VA RASMIYLASHTIRISH TARTIBI

Ruxsatnoma **QR-kod** (matrik shtrixli kod) qo'yib rasmiylashtiriladi.

DIQQAT!

Noruda foydali qazilmalari yer uchastkalarining chegaralarini joyida belgilash ishlari Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi hamda Tog'-kon, geologiya va sanoat xavfsizligini nazorat qilish inspeksiyasining hududlardagi bo'linmalari tomonidan bir vaqtning o'zida yer qa'ridan foydalanuvchi ishtirokida amalga oshiriladi.

Noruda foydali qazilmalarni o'z ichiga olgan yer qa'ri uchastkasidan foydalanish huquqini amalga oshirish uni davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan so'ng amalga oshiriladi. Yer qa'ri uchastkasidan foydalanish huquqini davlat ro'yxatiga olish Yer qa'ridan foydalanish markazi tomonidan amalga oshiriladi.

Noruda foydali qazilmalarni o'z ichiga olgan yer qa'ri uchastkasidan foydalanish huquqini davlat ro'yxatiga olish reyestrda tegishli qaydlarni kiritish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Har bir reyestrda quyidagilar ko'rsatilgan bo'lishi kerak:

 yer qa'ridan foydalanuvchi to'g'risidagi asosiy ma'lumotlar (nomi, tashkiliy-huquqiy shakli, soliq

to'lovchining identifikatsiya raqami, joylashgan yeri (pochta manzili), telefon va faks raqamlari);

- 📌 foydalanishga berilgan yer qa'ri uchastkasi nomi;
- 📌 yer qa'ri uchastkasidan foydalanish turi va maqsadi;
- 📌 yer qa'ridan foydalanish va ruxsatnomaning amal qilish muddati;
- 📌 ruxsatnomaning qayta rasmiylashtirishga asos va uning sanasi;
- 📌 yer qa'ri uchastkasidan foydalanish huquqini cheklash, to'xtatish yoki tugatish asosi va sanasi.

Foydalanishga berilgan noruda foydali qazilmalarni o'z ichiga olgan yer qa'ri uchastkalarini davlat hisobiga olish Yer qa'ridan foydalanish markazining Davlat geologiya fondi tomonidan, noruda foydali qazilmalarni o'z ichiga olgan yer qa'ri uchastkalaridan foydalanish huquqini davlat ro'yxatidan o'tkazilishiga oid materiallar olingan kundan boshlab **10 ish kuni muddatda** amalga oshiriladi.

YAKUNLOVCHI QOIDALAR

Yer qa'ri geologik o'rganish, yer osti boyliklaridan foydalanish va muhofaza qilish yuzasidan davlat nazorati mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, shuningdek, Tog'-kon, geologiya va sanoat xavfsizligini nazorat qilish inspeksiyasi tomonidan qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Ariza beruvchilar, noruda foydali qazilmalarni o'z ichiga olgan yer qa'ri uchastkasidan foydalanish huquqiga oid ruxsatnoma olish uchun ular tomonidan tayyorlangan, Yer qa'ridan foydalanish markaziga taqdim etilgan hujjatlar ishonchliligi va qonunchilik hujjatlariga muvofiqligi uchun javobgardirlar.

Qonunchilik talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javob beradilar.

ILOVALAR

Noruda foydali qazilmalarni o‘z ichiga olgan yer qa’ri uchastkalaridan foydalanish huquqini elektron onlayn-auksion orqali berish

SXEMASI

BOSQICHLAR	SUBYEKTLAR	TADBIRLAR	MUDDATLAR
1-BOSQICH (TAYYORGARLIK BOSQICHI)	Yer qa’ridan foydalanish markazi	Noruda foydali qazilmalarni o‘z ichiga olgan yer qa’ri uchastkalari ro‘yxatini shakllantiradi va tasdiqlaydi.	Har yili
	Yer qa’ridan foydalanish markazi	Yer qa’ridan foydalanish huquqini auksionda realizatsiya qilish uchun buyurtmanomalarni O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzuridagi “Elektron onlayn-auksionlarni tashkil etish markazi” davlat unitar korxonasiga (operatorga) taqdim etadi.	Tayyor bo‘lishi bilan
	Operator	Auksion o‘tkazilishi to‘g‘risidagi xabarnomani o‘z veb-portalida joylashtiradi.	Buyurtma olingan kundan boshlab
2-BOSQICH (AUKSION O‘TKAZISH)	Talabgorlar	Auksionda ishtirok etish uchun elektron shaklda ariza topshiradi, unda lot raqami va yer qa’ri uchastkasi nomini ko‘rsatadi.	30 kun mobaynida
	Operator	Lot bo‘yicha elektron auksion savdolari o‘tkazadi va auksion g‘olibini e‘lon qiladi.	1 ish kuni mobaynida
	Auksion g‘olibi	Auksionda g‘olib deb topilgan summaning 100 foizini hamda yer uchastkasini ajratish materiallarini tayyorlash uchun sarflangan to‘lovlarni to‘laydi.	Sotilgan obyektning qiymati BHMning 5 ming baravarigacha bo‘lganda 10 ish kuni, 5 ming baravariga teng yoki undan ortiq

3-BOSQICH (RUXSATNOMA BERISH)	bo'lganda 15 ish kuni mobaynida		
	Operator	Auksion g'olibi (zaxiradagi g'olib) tomonidan sotib olish to'lovlari to'liq to'langandan so'ng auksion g'olibiga bayonnoma rasmiylashtiradi hamda mazkur bayonnomani va u tomonidan imzolangan yer qa'ridan foydalanish shartlarini auksion g'olibining va Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligining shaxsiy kabinetiga elektron shaklda yuboradi.	1 ish kuni mobaynida
	Yer qa'ridan foydalanish markazi	Bayonnoma asosida Yer qa'ri uchastkalaridan foydalanish huquqi uchun tegishli ruxsatnomani, ERI bilan imzolangan va QR-kod (matrik shtrixli kod) bilan rasmiylashtirilgan holda, "E-auksion" elektron savdo platformasi orqali Operatorga yuboradi.	1 ish kuni mobaynida
	Operator	Auksion g'olibiga rasmiylashtirilgan ruxsatnomani uning shaxsiy kabinetiga yuboradi.	1 ish kuni mobaynida

This image shows a full page of blank white paper with horizontal ruling lines. The lines are evenly spaced and run across the width of the page, providing a template for writing or drawing. There are no margins, text, or other markings present.